O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 16-09-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

258298 - SONLI

Obyekt nomi: "IH. Magistral tarmoqlar podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish". 1-faza. "Qo'yliq" 220 kV li podstansiyasi	
Buyurtmachi:	O`ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI AJ
Bosh loyihachi:	"SREDAZENERGOSETPROEKT" AKSIYADORLIK JAMIYATI
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	4-Montaj boshqarmasi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	071186

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2017-yildagi PQ-3284-sonli "Jahon banki ishtirokida «Magistral tarmoqlarning kichik stansiyalarini zamonaviylashtirish va qayta qurish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

1.2. Qurilish vazirligi tomonidan taqdim etilgan 15.11.2024-yildagi 1726-1726290-206097 –sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent shahar MET tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan ishchi loyihani ishlab chiqish uchun loyihalashtirish topshirig'i hamda 2023-yilda tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig'iga qo'shimcha.

1.4. Belgilangan tartibda buyurtmachi va loyihachi bilan loyiha ishlarini amalga oshirish uchun 2019-yil 28-yanvarda tuzilgan №83-18-sonli shartnoma va shartnomaga keyingi yillarda tuzilgan qo'shimcha kelishuvlar.

1.5. "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent shahar MET ning 15.03.2021-yildagi 02-20/02-275-sonli xati texnik shartlari.

1.6. "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent shahar MET filiali direktori A.G'.Rasulov tomonidan 15.03.2021-yilda tasdiqlangan Modernizatsiya va rekonstruksiya loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan texnik kengash qarori.

1.7. "Sredazenergosetproekt" AJ tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan obyektning topografo-geodezik va muhandislik-meteorologik ishlarining 475(16)-201-02-t.2-sonli hisoboti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra elektron shaklda taqdim qilingan «“IH. Magistral tarmoqlar podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish”. 1-faza. “Qo‘yliq” 220 kV li podstansiyasi» loyiha hujjatlari.

2.2. Noturar joy toifasidagi ko‘chmas mulk obyektining 26.02.2021-yildagi YK-1726290/528810- raqami kadastr pasporti.

2.3. “Sredazenergosetproekt” AJ tomonidan 2016-yilda ishlab chiqilgan obyekt loyihasining 3767-01-t.1B-sonli Texnik iqtisodiy asosi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma‘lumotlari:

Qurilish maydonining seysmikligi - 8 ball.

Seysmik xususiyatlar bo‘yicha tuproq toifasi - II (ikkinchi).

Havoning yillik o‘rtacha harorati – +15°C.

Havoning yozgi maksimal harorati – +43-45°C.

Havoning qishki maksimal harorati – -30°C.

Qor qoplamining og‘irligi - 0,50 kPa (50kg/m2).

Shamol bosimi - 0,38 kPa (38kg/m2).

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,20m.

Yer osti suvlari, yer sathidan – 6,0m chuqurlikda.

Tuproq takibida oson eridigan tuzlar mavjud, sho‘rlangan.

3.2. Bosh reja.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ modernizatsiya va rekonstruksiya qilinayotgan “Qo‘yliq” 220/110/35/10/6 podstansiyasi Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Charos ko‘chasi 2-uy manzilida joylashgan.

Obyektning umumiy maydoni 66073,0 m^2 tashkil etib, bo‘lib shundan 2850,0m^2 qattiq to‘shamali maydon, 1000m^2 yashil ekin maydonidan iborat. Uning hududi shimol tomondan – qabriston hududi, sharq tomondan – avtomobil yo‘li, so‘ngra ishlab chiqarish korxonalari, g‘arb tomondan - ishlab chiqarish korxonalari, so‘ngra aholi turar joylari, janub tomondan – avtomobil yo‘li, so‘ngra aholi turar joylari bilan chegaralangan.

Loyihada Jahon banki ishtirokida magistral elektr tarmoqlari podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risidgi № 3284 – sonli qaroriga asosan, 220/110/35/10/6 kVli “Qo'yliq” podstansiyani modernizatsiya qilish ko‘zda tutadi.

Loyihada rekonstruksiya doirasida asosan quyidagi bo‘limlarda ishlar amalga oshirilishi belgilangan:

- 2*200 MVA avtotransformatorlarni almashtirish - 2 dona;
- 2*80 MVA 110 kV quvvatiga ega avtotransformatorlarni almashtirish - 2 dona;
- 2*400 kVA 6/0,5 kV quvvatiga ega avtotransformatorlarni almashtirish - 2 dona;
- 35 kV quvvatiga ega transformatorlar - 1 juftlik;
- 220 kV quvvatiga ega transformator toklarini almashtirish - 39 dona;
- 110 kV quvvatiga ega transformator toklarini almashtirish - 30 dona;
- 35 kV quvvatiga ega transformator toklarini almashtirish - 32 dona;
- 220 kV quvvatiga ega ajratgichlarni almashtirish - 45 juftlik;
- 110 kV quvvatiga ega ajratgichlarni almashtirish - 29 juftlik;
- 35 kV quvvatiga ega ajratgichlarni almashtirish - 48 juftlik;
- 220 kV OPNlarni almashtirish - 9 dona;

- 100 kV OPNlarni almashtirish - 15 dona;
- 35 kV OPNlarni almashtirish - 7 dona;
- 6 kV OPNlarni almashtirish - 6 dona;
- 20 kV izolyatorlarni almashtirish - 24 dona;
- 20 kV o‘tish izolyatorlarni almashtirish - 18 dona;
- 6 kV oqim cheklovchi reaktorlarni almashtirish - 6 dona;
- 10 kV oqim cheklovchi reaktorlarni almashtirish - 3 dona;
- 6kV KRU almashtirish - 21 shkafga.
- Maslosbornik (yog'ni yig'ish va saqlash uchun mo'ljallangan qurilmav) 45m^3;
- Yong'inga qarshi nasos stantsiyasi;
- Rezervuar uchun suv,150 m^3 sig'imi- 2dona;

Arxitektura yechimlari bo'limi bo'yicha:

S/u – 2 bo‘limli umimiy gabarit o‘lchami 3,5x2 m iborat balandligi 2,15 m. Umumiy balandligi 2,75 metrni tashkil qiladi.

3.3. Loyihaning texnologik yechimlari.

Loyihaning umumiy ko‘rsatmalar qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra loyihalanayotgan obyekt elektr ta’minotining ishonchliligi darajasiga ko‘ra – I toifaga kiritilgan. 220/110/35/10/6 kVli “Qo‘yliq” nimstansiyasida “Magistral tarmoqlar nimstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish. I bosqich” loyihasida mavjud uskunalarni almashtirish va quyidagi yangi jihozlarni o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

220 kV ochiq taqsimlash qurilmasida quyidagi asosiy uskunani o‘rnatishni nazarda tutadi:

- TFZM-220/B tipidagi 220 kV tok transformatori - 39 dona;
- GW4D-252DII(W)/2000 tipidagi 220 kV kuchlanishli uch kutupli ajratgich CJ-12D tipidagi motorli yurgizgichli va ikki komplektli topraklama pichog‘i - 10 dona;
- GW4D-252D(W)/2000 tipidagi 220 kV kuchlanishli uch kutupli ajratgich CJ-12D tipidagi dvigatel yurgizgichli va bir komplektli yerlagich pichoqlari bilan - 10 dona;
- 220 kV kuchlanishli OPN-P-220/680/176-10-IV tipidagi kuchlanish cheklagich – 9 dona;
- ShO-220-1-1 B UXL1 turdagi 220 kV li farforli tayanch izolyatori– 12 komplekt. 110 kV kuchlanishli ochiq taqsimlash qurilmasida: GW4D-126DII(W)/2000 va GW4D-126D(W)/2000 tipidagi 110 kV kuchlanishli uch kutupli ajratgich CS17 tipidagi motorli yurgizgichli va ikki komplektli topraklama pichog‘i - 31 dona;
- LVB-110 W3 tipidagi 110 kV tok transformatori - 30 dona;
- OPNp-110/680/80-10-IV UXL1 tipidagi 110 kV kuchlanish to‘xtatuvchisi GROM-2 operatsiya yozuvchisi bilan – 9 dona.

35 kV kuchlanishli ochiq taqsimlash qurilmasida:

- LVB-35 W3 tipidagi 35 kV tok transformatori - 30 dona;
- OPNp-35/680/41-10-IV UXL1 tipidagi 35 kV kuchlanish to‘xtatuvchisi GROM-2 operatsiya yozuvchisi bilan – 6 dona;

ZRU-6 kV.

Loyihada ZRU-6 kV da quyidagi uskunalarni o‘rnatishni nazarda tutilgan:

- 6 kV li K-63 U3 turdagi Kirish yacheykasi - 1 dona;
- K-63 U3 tipidagi TN-6 kV yacheyka - 1 dona;
- K-63 U3 tipidagi KL-6 kV yacheyka - 1 dona;
- 400 kVA quvvatli va 6/0,4 kV kuchlanishli TMG-400/6-UXL1 tipidagi o‘z ehtiyojlari uchun transformator.

Loyihaning texnologik qismi loyihaviy topshiriq va amaldagi normalar, qoidalar va standartlarga muvofiq amalga oshirish belgilab qo‘yilgan.

3.4. Yong‘in xavfsizligi.

Korxonaning yong‘inga qarshi suv ta'minloti markazlashtirilgan tarzda suv ta'minoti inshootlari tugunidan amalga oshiriladi. Suv ta'minoti inshootlari tuguni tarkibiga quyidagilar kiradi:

Yong‘inga qarshi 3 soatlik suv zaxirasini saqlash uchun har biri 150 m³ sig‘imga ega bo‘lgan 2 ta rezervuar loyihalashtirilgan.

Loyihada AT-1 va AT-5 transformatorlari uchun quvurlarni o‘tkazish va purkagichlagichlarni o‘rnatish bo‘yicha yechimlar aks ettirilgan. Loyihada OPD tipidagi drencherli purkagichlagichlar qabul qilingan. Bitta transformator uchun purkagichlagichlar soni 21 ta.

Loyihada ichki yong‘inni o‘chirish 2,5 l/s (1 oqim) hisobiga mo‘ljallangan.

Tasodifiy suvlar olib tashlanishi uchun drenaj nasosi o‘rnatilishi ko‘rsatilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Loyihada muhandislik tarmoqlari ta’minoti ko‘zda tutilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Farg'ona viloyati filialining 19.04.2024-yilda berilgan 01-02/14-557 -sonli ijobiy xulosasi.

5.2. Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi “O‘zenergoinspeksiya” Toshkent shahr boshqarmasi bilan loyihaning kelishilganligi haqidagi 23.09.2024-yildagi 18-861-sonli xati.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga arxitektura va rejalashtirish va boshqa yechimlari bo‘yicha taklif va kamchiliklarisiz vaqtidan kechikib taqdim etilgan. Shuningdek energotejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha e‘tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida sohalar ekspertlari xulosalarining izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan to‘liq qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar kiritilgan.

6.3. Ekspertiza natijalariga ko‘ra *«“IH. Magistral tarmoqlar podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish”. 1-faza. “Qo‘yliq” 220 kV li podstansiyasi»* obyekti ning QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) bilan 206 413 377,279 ming so‘m miqdoridagi taqdim etilgan dastlabki qiymati, 9 029 161,022 ming so‘mga kamayib, QQS bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz **197 384 216,257** ming so‘mni tashkil etdi. Xususan:

– Asbob – uskunalar – 114 922 981,914 ming so‘m. Shuningdek, bundan import (chet el) asbob-uskunalari – 72 402 585,582 ming so‘m;

– Qurilish – montaj ishlari – 61 312 925,458 ming so‘m. Shuningdek, bundan import qurilish materiallari – 10 360 289,072 ming so‘m;

– QQS – 21 148 308,885 ming so‘m.

Obyekt qiymatining kamayishiga ish hajmlarini, qurilish materiallari narxlarini, ish turlari va normalarini qayta ko‘rib chiqish hisobidan erishildi.

Import asbob-uskunalarning narxlari (72 402 585,582 ming so‘m) va import qurilish materiallari narxlari (10 360 289, 072 ming so‘m) ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmaganligi qayd etiladi.

Obyektning aniqlangan tavsiyaviy qiymati shartnoma tuzish, to‘lovlarni amalga oshirishga asos bo‘lmaydi.

6.4. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so‘ng, haqqoniy bajarilgan ish hajmlarining nazorat o‘lchovi natijalari asosida belgilanadi.

6.5. Buyurtmachiga tavsiya etiladi:

– katlovan va transheya qazish ishlarini meyoriy hujjatlarda belgilangan tartibda qabul qilish;

– demontajdan chiqqan mahsulotlar ro‘yxatini shakllantirish hamda o‘rnatilgan tartibda dalolatnoma asosida kirim qilish;

– loyihachi tashkiloti qurilish elementlarining mustahkamligini amaldagi meyorlarga muvofiq qo'shimcha ravishda tekshirish va zarurat tug‘ilganda ularni mustahkamlash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

– yer ishlarini bajarishdan oldin, kutilmagan holatlarning oldini olish uchun, mavjud bo'lgan yer osti muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining haqiqiy joylashuvini, mahalliy ekspluatatsiya xizmatlari vakillari bilan aniqlash va bosqalar.

6.6. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga ekspert xulosalarida ko‘rsatilgan sharxlar bo‘yicha to‘g‘rilangan holda taqdim etishi zarur.

6.7. Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti ishchi hujjatlar tasdiqlanishidan oldin barcha manfaatdor tashkilotlar bilan belgilangan tartibda kelishishi zarur.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qarorining III-bob 29-bandiga, ShNQ 1.03.06-13, II bob, 8-bandiga muvofiq Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining to‘liqligi, ma‘lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan «*“IH. Magistral tarmoqlar podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish”. 1-faza. “Qo‘yliq” 220 kV li podstansiyasi* obyekti loyihasi ishchi hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Murotov Behzod Jo‘raqulovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Fayzullayeva Dilafruz Xolmurot Qizi